



INTER EDUCATION

&

GLOBAL STUDY

INSPIRATION FOR
THE
MODERN
RESEARCHER

2025
VOL.3. №6

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
Научно-теоретический и
методический журнал
Scientific-theoretical and
methodological journal

2992-9024

ISSN

2025. VOLUME 3

ISSUE 6

ISSN 2992-9024

INTER EDUCATION & GLOBAL STUDY

Ilmiy-nazariy va metodik jurnal
2025-yil,6-son

BUXORO – 2025

Abdisamatova D.S.	Boshlang'ich sinflarda dialogli muloqotni shakllantirishning samarali usullari.	342–349
Shovdirov S.A.	Tasviriy san'at darslarida o'quvchilarning ijodiy fikrlashlarini rivojlantirish orqali kompetensiya shakllanishi.	350–358
Mamurova D.I.	Raqamli texnologiyalar asosida chizmachilik bo'yicha test va topshiriqlar tuzish usullari.	359–367
Jamoldinova J.A., Abdualiyeva S.N.	Pedagoglarda konfliktologik madaniyatni rivojlantirishni psixologik xususiyatlari.	368–378
Gulboyev A.T.	Zamonaviy ta'lim tizimida art pedagogika vositasida o'quvchilarning emotsional intellektini shakllantirish metodikasi.	379–386
Umaraliyeva Sh.S.	Boshlang'ich sinflarda ona tilini o'qitishda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini integratsiyalash yo'llari.	387-393
Asanova U.S.	Raqamli ta'lim tizimida sun'iy intellekt texnologiyalari	394–400
Xalmatova D.A., Ro'ziboyeva O'.Y.	Pedagogik diagnostika o'qituvchi faoliyatining tarkibiy qismi sifatida.	401–408
Xanimkulov B.R.	Zamonaviy matematik dars metodlari: metodik tavsiyalar.	409–414
Azamat E.	Fonetik o'rgatish metodikasi bo'yicha nazariy yondashuvlar: audiolingval, kommunikativ va fonetik-differensial metodlar tahlili.	415–425
Sharofova N.I.	Savod o'rgatish davrida nutq malakalarini shakllantirish.	426–431
17.00.00 – San'atshunoslik fanlari		
Nematova T.A.	Milliylik va zamonaviylik uyg'unlashgan liboslarga hozirgi zamonda bo'lgan talab.	432–438
Todjiddinov T.U.	Prodyuserlik ijtimoiy-madaniy faoliyat sifatida (ilmiy-metodologik masalalari).	439–447
Sattorov D.A.	Konsertmeystar tayyorlashda improvizatsiya va transpozitsiya ko'nikmalarining ahamiyati.	448–455
Djamalova D.A.	O'zbek ayollarimizning san'atimiz rivojiga qo'shgan o'zni.	456–467
19.00.00 – Psixologiya fanlari		
Jalilov Z.B.	Ta'lim jarayonida motivatsiyaning psixologik asoslari va uning samaradorligini oshirish yo'llari.	468–471
Bekmanova J.A., Abdullayeva M.J.	Autizm spektri buzilgan bolalar bilan ishlashda yangi vektorlar.	472–480
Bekmanova J.A., Saparbayeva M.A.	Neyromotor tuzatishning o'yin usullari.	481–491
Baxtiyorov R.M.	Talabalar o'zaro empatiyasi va guruhdagi psixologik iqlimning o'quv motiviga ta'siri.	492–506
Suyetbayeva E.S.	Urf-odatlar, marosimlar va folklor - oilaviy hayotga etnopsixologik tayyorgarlikni muvofiqlashtiruvchi omillar	507–514

PEDAGOGIK DIAGNOSTIKA O'QITUVCHI FAOLIYATINING TARKIBIY QISMI SIFATIDA



© D.A. Xalmatova^{1✉}, © O'.Y. Ro'ziboyeva^{2✉}

^{1,2}Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Chirchiq, O'zbekiston

Annotatsiya

KIRISH: ushbu maqolada pedagogik diagnostikaning mohiyati, vazifalari hamda u o'qituvchilik kasbining tarkibiy qismi sifatida tutgan o'rni atroflicha tahlil qilingan. Pedagogik diagnostikaning nazariy asoslari, turlari, usullari va o'quv jarayoniga ta'siri yoritilib, o'qituvchining diagnostik kompetensiyasi zamonaviy ta'limdagi asosiy kasbiy ko'nikma sifatida baholangan. Pedagogik diagnostikaning ta'lim sifatini oshirish, o'quvchilarning individual rivojlanishini ta'minlash va samarali pedagogik qarorlar qabul qilishdagi ahamiyatini asoslab beradi.

Zamonaviy ta'lim tizimining murakkablashib borishi o'qituvchining roli va vazifalarini kengaytirmoqda. Endilikda pedagog faqatgina bilim beruvchi emas, balki o'quvchilarning shaxsiy va intellektual rivojlanishini kuzatuvchi, tahlil qiluvchi va zarur holatlarda korreksiya jarayonlarini amalga oshiruvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu ma'noda, pedagogik diagnostika o'qituvchining kasbiy faoliyatida muhim va ajralmas omil sifatida e'tirof etiladi. U o'quvchilarning individual xususiyatlarini, bilim darajasini va rivojlanish sur'atlarini aniqlash orqali ta'lim jarayonini samarali yo'naltirish imkonini yaratadi.

MAQSAD: mazkur maqolaning maqsadi pedagogik diagnostikaning zamonaviy ta'lim tizimidagi o'rnini yoritish, uning o'qituvchi kasbiy kompetentligini oshirishdagi ahamiyatini tahlil qilish va diagnostika vositalarining o'quvchilarning rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishini aniqlashdan iborat. Shuningdek, pedagogik diagnostikaning tarixiy ildizlari, asosiy vazifalari va qo'llash mexanizmlarini o'rganish orqali, uning ta'lim sifati va samaradorligiga qo'shayotgan hissasi aniqlanadi.

MATERIALLAR VA METODLAR: tadqiqotda nazariy tahlil usulidan foydalangan holda pedagogik diagnostika bilan bog'liq ilmiy manbalar, jumladan, Karlxayns Ingenkamp, L.V. Grebennikova va boshqa olimlarning qarashlari asos qilib olindi. Shuningdek, o'qituvchi faoliyati va o'quvchilarning rivojlanish jarayonlariga oid diagnostik ko'rsatkichlar tizimli tahlil qilindi. Tahlil obyekti sifatida o'qituvchining kasbiy faoliyatida diagnostika vositalaridan foydalanish amaliyoti ko'rib chiqildi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR: pedagogik diagnostika o'qituvchi faoliyatining markaziy qismiga aylanib borayotgani ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirishda muhim rol o'ynaydi. Diagnostika orqali o'quvchilarning bilim darajasi, rivojlanish sur'atlari va psixologik holati aniqlanadi, bu esa dars mazmunini moslashtirishga imkon beradi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, diagnostika o'qituvchining rejalashtirish, refleksiya va o'z-o'zini baholash jarayonlarini yanada chuqurlashtiradi. Shu bilan birga, u ta'lim natijalarining sifatli monitoringi, o'quvchilarning individuallashtirilgan rivojlanish yo'nalishini belgilashda samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

XULOSA: zamonaviy pedagogik amaliyotda diagnostika vositalarining ahamiyati ortib bormoqda. Har bir o'qituvchi pedagogik diagnostika asoslarini chuqur egallab, uni amaliy faoliyatda to'g'ri qo'llay bilishi ta'limning sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Pedagogik diagnostika o'quvchilar rivojini izchil tahlil qilish, muammolarni erta aniqlash, individual yondashuvni ta'minlash va o'qituvchi kasbiy kompetentligini oshirishning asosiy omilidir. Shu sababli pedagogik tashxis har bir o'qituvchining kundalik faoliyatida markaziy o'rin tutmog'i lozim.

Kalit so'zlar: pedagog, pedagogik diagnostika, korreksiya, kompetentsiya, individuallik, differensial.

Iqtibos uchun: Xalmatova D.A., Ro'ziboyeva O'.Y. Pedagogik diagnostika o'qituvchi faoliyatining tarkibiy qismi sifatida. // Inter education & global study. 2025, №6. B.401–408.

ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ ДИАГНОСТИКА КАК СОСТАВНАЯ ЧАСТЬ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ УЧИТЕЛЯ

© Д.А. Халматова^{1✉}, © У. Ё. Рузибоева^{2✉}

^{1,2}Чирчикский государственный педагогический институт, Чирчик, Узбекистан

Аннотация

ВВЕДЕНИЕ: в данной статье всесторонне проанализированы сущность и функции педагогической диагностики, а также её место как составной части педагогической профессии. Рассмотрены теоретические основы, виды и методы педагогической диагностики, её влияние на образовательный процесс. Также дана оценка диагностической компетентности учителя как одной из ключевых профессиональных умений в современной системе образования. Обосновано значение педагогической диагностики в повышении качества образования, обеспечении индивидуального развития учащихся и принятии эффективных педагогических решений.

Усложнение современной системы образования расширяет роль и обязанности учителя. Сегодня педагог — это не только носитель знаний, но и специалист, который наблюдает за личностным и интеллектуальным развитием учащихся, анализирует и, при необходимости, проводит коррекционную работу. В этом контексте педагогическая диагностика признаётся важным и неотъемлемым элементом профессиональной деятельности учителя. Она позволяет эффективно направлять образовательный процесс, выявляя индивидуальные особенности, уровень знаний и темпы развития учащихся.

ЦЕЛЬ: целью данной статьи является освещение роли педагогической диагностики в современной образовательной системе, анализ её значения в повышении профессиональной компетентности учителя, а также определение влияния диагностических инструментов на развитие учащихся. Кроме того, на основе изучения исторических корней, основных задач и механизмов применения педагогической диагностики раскрывается её вклад в повышение качества и эффективности образования.

МАТЕРИАЛЫ И МЕТОДЫ: в исследовании применён метод теоретического анализа научных источников, связанных с педагогической диагностикой, в частности, взгляды таких учёных, как Карлхайнц Ингенкамп, Л.В. Гребенникова и других. Системно проанализированы диагностические показатели, относящиеся к профессиональной деятельности учителя и процессам развития учащихся. В качестве объекта анализа рассматривается практика применения диагностических инструментов в профессиональной деятельности педагога.

ОБСУЖДЕНИЕ И РЕЗУЛЬТАТЫ: педагогическая диагностика всё больше становится центральным элементом деятельности учителя, играя ключевую роль в повышении эффективности образовательного процесса. С помощью диагностики определяются уровень знаний учащихся, темпы их развития и психологическое состояние, что позволяет адаптировать содержание уроков. Результаты исследования показывают, что диагностика углубляет процессы планирования, рефлексии и самооценки у педагога. Кроме того, она служит эффективным инструментом для качественного мониторинга учебных результатов и определения индивидуальных траекторий развития учащихся.

ЗАКЛЮЧЕНИЕ: в современной педагогической практике значение диагностических инструментов продолжает возрастать. Каждый учитель должен глубоко овладеть основами педагогической диагностики и уметь правильно применять их в своей деятельности, поскольку это имеет решающее значение для повышения качества образования. Педагогическая диагностика является основным фактором в системном анализе развития учащихся, раннем выявлении проблем, обеспечении индивидуального подхода и повышении профессиональной компетентности педагога. Следовательно, педагогическая диагностика должна занимать центральное место в ежедневной работе каждого учителя.

Ключевые слова: педагог, педагогическая диагностика, коррекция, компетентность, индивидуальность, дифференциация.

Для цитирования: Халматова Д.А., Рузибоева У. Ё. Педагогическая диагностика как составная часть деятельности учителя. // Inter education & global study. 2025, №6. С. 401–408.

PEDAGOGICAL DIAGNOSTICS AS AN INTEGRAL PART OF TEACHING PRACTICE

© Dilobad A. Khalmatova^{1✉}, © Ulmasoy Y. Roziboyeva^{2✉}
^{1,2}Chirchik State Pedagogical Institute, Chirchik, Uzbekistan

Annotation

INTRODUCTION: this article provides an in-depth analysis of the essence and functions of pedagogical diagnostics, emphasizing its role as a key component of the teaching profession. The theoretical foundations, types, and methods of pedagogical diagnostics are discussed, along with its impact on the learning process. The article also evaluates the teacher's diagnostic competence as a crucial professional skill in modern education. Furthermore, the significance of pedagogical diagnostics in improving education quality, supporting students' individual development, and making effective pedagogical decisions is substantiated.

The increasing complexity of the modern education system is expanding the role and responsibilities of teachers. Today, a teacher is no longer merely a transmitter of knowledge but is also expected to monitor, analyze, and, if necessary, correct the personal and intellectual development of students. In this context, pedagogical diagnostics is recognized as a vital and integral part of a teacher's professional activity. It enables the effective direction of the educational process by identifying students' individual characteristics, knowledge levels, and developmental dynamics.

AIM: the purpose of this article is to highlight the significance of pedagogical diagnostics in the contemporary education system, analyze its role in enhancing teachers' professional competence, and determine how diagnostic tools influence students' development. In addition, by examining the historical background, main functions, and implementation mechanisms of pedagogical diagnostics, the article aims to assess its contribution to improving educational quality and effectiveness.

MATERIALS AND METHODS: the study employed theoretical analysis of scientific sources related to pedagogical diagnostics, particularly the views of scholars such as Karlheinz Ingenkamp, L.V. Grebennikova, and others. Diagnostic indicators related to teachers' professional activities and student development processes were systematically analyzed. The object of analysis was the practical application of diagnostic tools in teachers' professional activities.

DISCUSSION AND RESULTS: pedagogical diagnostics is increasingly becoming central to teachers' professional work, playing a crucial role in enhancing the effectiveness of the educational process. Through diagnostics, teachers can determine students' levels of knowledge, developmental progress, and psychological state, enabling them to adapt lesson content accordingly. Research results show that diagnostics deepens teachers' planning, reflection, and self-assessment processes. Moreover, it serves as an effective tool for qualitative monitoring of educational outcomes and for designing individualized development trajectories for students.

CONCLUSION: in today's pedagogical practice, the importance of diagnostic tools continues to grow. Every teacher must master the fundamentals of pedagogical diagnostics and apply them effectively in practice, as this plays a key role in improving the quality of education. Pedagogical diagnostics is essential for consistently analyzing student development, identifying problems early, ensuring individual approaches, and enhancing teacher competence. Therefore, pedagogical diagnostics must occupy a central place in every teacher's daily professional activities.

Key words: pedagogue, pedagogical diagnostics, correction, competence, individuality, differentiation.

For citation: Dilobad D. Khalmatova, Ulmasoy Y. Roziboyeva. (2025) 'Pedagogical diagnostics as an integral part of teaching practice', Inter education & global study, (6), pp. 401–408. (In Uzbek).

Zamonaviy ta'lim tizimi o'qituvchidan nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchilarning rivojlanish jarayonini tahlil qiluvchi, yo'naltiruvchi, korreksiya qiluvchi shaxs sifatida faoliyat yuritishni talab etadi. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, pedagogik diagnostika o'qituvchining kasbiy faoliyatining ajralmas va muhim tarkibiy qismiga aylanadi.

Pedagogik diagnostika — bu ta'lim jarayonining holatini, o'quvchilarning individual xususiyatlari va bilim darajasini aniqlash, o'quv jarayonidagi muammolarni aniqlash va ularni bartaraf etish yo'llarini belgilashga qaratilgan faoliyatdir. Bugungi kunda o'qituvchi kasbiy faoliyatining muhim tarkibiy qismiga aylanib borayotgan "Pedagogik diagnostika"ning tarixida nemis olimi Karlxayns Ingenkampning alohida o'rni bor. Aynan Karlxayns Ingenkamp 1968 yilda ta'lim sohasida "pedagogic diagnostika" tushunchasini qo'llash taklifini ilgari surgan. Muallif tashxisga asoslanuvchi pedagogik faoliyat negizida sifatning zarur ilmiy mezonlarini saqlab qolgan holda o'qituvchi tomonidan o'quvchilar faoliyatini anketa yordamida kuzatish, nazorat va so'rovlar natijalarini qayta ishlash orqali xatti-harakatlari mohiyatidan ularni xabardor qilish, natijalar uchun negiz bo'lgan sabablarni yoritish va istiqbolni izohlash jarayonini tushungan edi. "Diagnostika" (tashxislash) tushunchasi yunon tilidan tarjima qilinganda lug'aviy jihatdan "bilish", "aniqlash", nazariy jihatdan esa "aniqlashga qodirlik", "aniqlashga imkon berish" ma'nolarini anglatadi.

Ijtimoiy taraqqiyotning keyingi bosqichlarida iqtisodiy, madaniy o'zgarishlar, sub'ektlarning hayot tarzidan kelib chiqqan holda "diagnostika" tushunchasi turli sohalarda ham qo'llanila boshlandi. Pedagogning turli pedagogik vaziyatlarda mavjud muammolarni hech bir qiyinchiliksiz, oqilona hal etishi uning yuqori darajada kasbiy kompetentlikka ega bo'lishiga bog'liq. Qolaversa, inson resurslariga bo'lgan ehtiyoj tobora o'sib borayotgan hamda mehnat bozorida kuchli raqobat yuzaga kelayotgan mavjud sharoitda pedagogning kasbiy kompetentlikka ega bo'lishi mazkur muammoning dolzarbligini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Pedagogik tashxislash orqali pedagog faoliyatini aniqlashtirish, uni amaliy vazifalarni hal qilishga yo'naltirish, pedagogning kasbiy kompetentligini takomillashtirish,

o'quvchilarning bilim hamda tarbiyalanganlik darajasini, shuningdek, o'quvchilar jamoasining tarbiyalovchi ta'sirini kuchaytirish mumkin.

L.V.Grebennikovaning qayd etishicha, o'qituvchi faoliyatini tahlil qilish orqali tashxislash u tomonidan tashkil etilayotgan kasbiy mehnat bilan uning natijasi o'rtasidagi farq (ta'lim oluvchilarning aqliy, madaniy rivojlanishi, zakovati, nazariyaning amaliyot bilan bog'lay olish ko'nikma, malakalariga egaliklari)ni ko'rish, o'qituvchi mehnatida zamonaviy hamda ana'aviy yondashuvlarni ongli ravishda o'zaro uyg'unlashganligini aniqlash imkoniyatini yaratadi. Qaysi soha bo'lishidan qat'i nazar tashxislash murakkab jarayon sanaladi.

Binobarin, bu jarayonda barcha omillarni inobatga olish, qo'lga kiritilgan ma'lumotlarni har tomonlama tahlil qilish, natijalarni xolis baholash talab etiladi. Bordi-yu, tashxis jarayonida bu talablardan biri inobatga olinmasa, u holda pedagogning faoliyati, qolaversa, unga bog'liq ravishda o'quv-tarbiya ishlarining samaradorligi ham baholanmaydi.

O'qituvchilarda kasbiy kompetentlikni mustaqil ravishda tahlil qilib, baholab borish malakalariga ega bo'lishlarini ta'minlashga erishish zarur. Pedagoglarning kasbiy kompetentlikka egalikni mustaqil tahlil va baholash ko'nikmalariga egaliklari o'z ustida ishlashlari, kamchiliklarni izchil bartaraf etish, yutuqlarni muntazam ravishda boyitib borishga odatlanishlariga yordam beradi.

O'qituvchi faoliyatida diagnostikaning o'rni.

O'qituvchi kasbining samaradorligi o'quvchilar bilan olib boriladigan tahliliy ishlarga bevosita bog'liq. Quyidagi jihatlar diagnostikaning ahamiyatini ko'rsatadi:

1. Ta'lim jarayonining sifatini oshiradi. Diagnostika orqali o'quvchilar bilimidagi bo'shliqlar aniqlanadi va shu asosda o'qitish metodlari moslashtiriladi.

2. Individuallashtirish va diferensial yondashuvni ta'minlaydi. Har bir o'quvchining o'ziga xos rivojlanish sur'ati, ehtiyojlari va qobiliyatlarini inobatga olish imkonini beradi.

3. O'qituvchining rejalashtirish faoliyatini asoslaydi. Dars mazmuni, metodikasi va vositalari diagnostik natijalarga ko'ra shakllantiriladi.

4. Refleksiya va o'z-o'zini baholashga yordam beradi. O'qituvchi o'z faoliyatining samarasini tahlil qilib, kerakli o'zgarishlar kiritadi.

Pedagogik diagnostikaning o'qituvchi faoliyatidagi asosiy vazifalari quyidagilardan iborat:

- O'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini aniqlash va baholash
- O'quvchilarning psixologik holatini, rivojlanish darajasini aniqlash
- Pedagogik jarayon samaradorligini tahlil qilish
- O'quv faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni erta aniqlash va ularni bartaraf etish
- O'quvchilar rivojlanishini nazorat qilish va individual yo'nalishlarni belgilash kabilar.

XIX asrning II yarmida maktabda ta'lim turlarining keng tarqalishi munosabati bilan baholash usullarini takomillashtirish zarurati tug'ildi. Pedagogik diagnostikaning rivojlanishi

psixodiagnostika usullarini yaratish bilan parallel ravishda amalga oshirildi va bu jarayonlar integrallashdi. Aksariyat psixologik testlar maktab ehtiyojlari uchun maxsus yaratilgan yoki pedagogik jarayonda foydalanish uchun tezda moslashtirildi.

K.Ingenkamp fikricha «Pedagogik diagnostika, birinchidan, individual ta'lim jarayonini optimallashtirishga mo'ljallangan bo'lsa, ikkinchidan, ta'lim natijalarini to'g'ri aniqlashni ta'minlash, uchinchidan, jamiyat manfaatlariga mos keladi. Shuningdek talabalarni bir o'quv guruhidan boshqasiga o'tkazishda, ularni turli kurslarga taqsimlashda va ta'lim ixtisosligini tanlashda xatolarni minimallashtirish uchun ishlab chiqilgan mezonlarga bo'ysunadi».

Zamonaviy sharoitda pedagogik diagnostika vositalarini o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishini ta'minlay oladigan darajada takomillashtirish talab qilinadi. Qolaversa, har bir o'quvchining muammo va yutuqlariga tayangan holda uni rivojlantirish traektoriyasini oqilona belgilash maqsadga muvofiqdir. Bunda, eng muhimi, pedagogik diagnostika jarayoni bosqichlari to'g'ri belgilash va ularni izchil tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Demak, zamonaviy sharoitda har bir o'qituvchi har o'qituvchi pedagogik diagnostika asoslarini puxta bilishi, bu boradagi mavjud bilimlaridan ta'lim va tarbiya jarayonida samarali foydalana olishi zarur. Zero, shunda pedagogik jarayonning samaradorligini ta'minlash va o'quvchilarni har tomonlama rivojlangan shaxs etib tarbiyalashga erishiladi.

Pedagogik diagnostika o'qituvchining kasbiy mahoratini belgilovchi, ta'lim sifatini oshiruvchi muhim vosita hisoblanadi. O'qituvchi nafaqat bilim beruvchi, balki o'quvchining shaxsiy rivojlanish yo'lini kuzatuvchi, baholovchi va kerakli o'zgarishlarni joriy qiluvchi mutaxassis sifatida faoliyat yuritishi lozim. Shu sababli pedagogik diagnostika o'qituvchining har kunlik ish jarayonining ajralmas qismi bo'lib, uning muvaffaqiyatli faoliyat yuritishida muhim o'rin tutadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI | СПИСОК ЛИТЕРАТУРЫ | REFERENCES

1. Abdullayeva Sh. A. Pedagogik diagnostika. -Toshkent: Fan va texnologiyalar, 2010 - 256 b.
2. Abdullayeva Sh. A. O' quvchilarni pedagogik tashxislashda qo'llaniladigan metodlar//Xalq ta'limi, 2016 ,№3, 40-45 b.b.
3. Pedagogika nazariyasi va tarixi. 1-qism. Pedagogika nazariyasi/
4. M.X.Toxtaxodjayeva va boshqalar. Prof. M.X.Toxtaxodjayevaning umumiy tahriri ostida. -Toshkent:
5. D.O.Ximmataliyev, S.B.Allayarova, D.Xalmatova, R.R.Karimov, I.N.Buxorov, Sh.V.Usmonov, M.O'.Xakimova. Pedagogik diagnostika va korreksiya O'quv qo'llanma. – Toshkent
6. Ingenkamp Karlxayns. Pedagogischen diagnostik.-Berlin, 1991- 240 p.
7. Педагогическая диагностика в школе/Под ред. А.И. Кочетова - Мн., 19875.